

ALEKSANDR FAYNBERG “QORALAMALAR QASIDASI” SHE’RIDA IJOD, ILHOM VA SO’Z FALSAFASI

Abdishukurova Jasmina Dilshod qizi

jasminaabdishukurova2108gmail.com

Xorijiy til va adabiyot fakulteti, O‘zbekiston davlat jahon

tillari universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19044086>

Annotatsiya: Ushbu maqolada rusiyzabon o‘zbek shoiri Aleksandr Faynberg ijodining yorqin namunalaridan biri hisoblangan “Qoralamalar qasidasi” she’ri batafsil tahlil qilinadi hamda uning har bir satrining badiiy va falsafiy talqini yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Aleksandr Faynberg, qoralama poetikasi, badiiy tahlil, falsafiy talqin, she’riy obraz, ijod jarayoni, metafora, poetik tafakkur.

Abstract: This article provides a detailed analysis of the poem “Ode to Drafts”, which is considered one of the remarkable works of the Russian-speaking Uzbek poet Aleksandr Faynberg. The study examines the poem line by line and presents its artistic and philosophical interpretations.

Keywords: Aleksandr Faynberg, draft poetics, literary analysis, philosophical interpretation, poetic imagery, creative process, metaphor, poetic thinking.

Аннотация: В данной статье проводится подробный анализ стихотворения «Ода черновикам», которое считается одним из ярких произведений русскоязычного узбекского поэта Aleksandr Faynberg. В работе представлена художественная и философская интерпретация каждой строки произведения

Ключевые слова: Александр Файнберг, поэтика черновика, художественный анализ, философская интерпретация, поэтический образ, творческий процесс, метафора, поэтическое мышление.

XX asr she’riyati o‘zining rang-barang badiiy izlanishlari, falsafiy qarashlar muhokamalari va inson ruhiy holatini keng aks ettirishi bilan alohida ajralib turadi. Bu davr davr adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri –Aleksandr Faynberg hisoblanadi. Shoirning o‘ziga xos poetik uslubi bo‘lib, u o‘quvchilarni tafakkur qilishga, mushohada yuritishga va nozik tasviriy detallarga diqqatli bo‘lishga undaydi. Shubhasiz, shoir ijodida tabiat, atrof-muhit, insonlar va ularning kechinmalari asosiy obrazlar hisoblanadi. Ayniqsa, “Qoralamalar qasidasi” she’ri ijodkorning ichki dunyosi, ijod jarayonining mashaqqatli bosqichlari bilan o‘zgacha muhimlik kasb etadi. Mazkur she’rda qoralama oddiy yozuv emas, balki shoir ruhiyati, ilhom lahzalari va yashirin kechinmalari ijodiy

izlanishlarining timsolida talqin qilinadi. Quyida, ushbu she'rning badiiy hamda falsafiy tahlili, ramziy obrazlari, metaforalar, tashxis va boshqa tasviriy vositalarning mazmunini ochib beriladi. Shuningdek, she'r orqali ijod jarayonining mohiyati va qoralamaning shoir hayotidagi o'rni ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Birinchi band:

“Shoir, shu borliqda tong chog'i ochil,”

Birinchi band shoirning o'zi va boshqa ijodkorlarga murojaati ohangida jaranglaydi. “Tong chog'i ochil” metaforasi ruhiy uyg'onish va ilhomning boshlanishini anglatadi. Aynan tongning asosiy obraz sifatida olinishi esa uning yangi ijodiy jarayonning ramzi sifatida qo'llanilishini ifoda etadi. She'rning buyruq, da'vat ohangida jaranglashi shoirning ijod ahlini tongdagi – yangi kun boshidagi – ijodga chorlovidek tushunish mumkin. Negaki, shoir biladi: tabiat sahar tong vaqtida insoniyatni o'zgacha tuyg'ular bilan o'rab oladi va ijodkorlik ilhomini keltiradi. Demak, ushbu she'rda ham Aleksandr Faynbergning asosiy nazmdagi obrazi – tabiat obrazi qo'llanilgan (Faynberg, 1999).

“Boshqa yo'l tanlama qabrga qadar.”

Bu satr ijodkorning hayot yo'lini qat'iy belgilaydi va to qabrgacha “qalb kasbi” – ijodkorlikni to'xtatmaslikka undaydi. Har bir inson hayotga vazifa bilan kelishi va bu vazifani sidqidildan ado etishi lozimligi bayon etiladi. Shoir uchun haqiqiy yo'l – ijod yo'li. Bu falsafiy jihatdan har bir insonning o'z taqdir yo'lini tanlashi va unga sodiq qolishi g'oyasini ilgari suradi. Ushbu band chuqur falsafiy mushohadaga ega bo'lib, undash ohanggi mavjud (Mirag'ov, 2018).

“Yerning jamoliga maftun, oshiq bo'l,”

Bu yerda shoir tabiat va borliqning go'zalligiga oshufta bo'lishga chorlaydi. Bu romantik g'oya bo'lib, she'riyatda keng qo'llaniladi. Bu orqali shoir tabiatdan ilhomlanish mumkinligi va zamin betakrorligi ijodkor qalbida ishtiyoq uyg'otish kuchiga ega ekanligini ta'kidlaydi (Karimov, 2015).

“Sevib-sevib kuyla, tangri madadkor.”

Ushbu satrda falsafiy qarash mavjud bo'lib, ilhomning ilohiy manbaga ega ekani ifodalanadi. Agar har bir so'z qalb to'ridan chiqsa, shubhasiz, yuraklarni zabt etadigan ta'sirga ega bo'lishi tasvirlanadi.

“Biroq, shoir, oqqa ko'chirmalaring”

“Oqqa ko'chirish”, ya'ni ijod mahsulini qoralamadan olib tayyor holga keltirish jarayoni aks ettiriladi. Bu yerda shoir qancha mashaqqatli urinishlardan keyin vujudga kelgan mukammal asarning paydo bo'lish jarayonini eslatadi.

“Barham diltortar, jilvagar dema.”

Darhaqiqat, barcha oqqa ko'chirilganlar ham mukammal bo'lavermaydi. Chiroyli matn ko'rinishi uni diltortar ijod namunasiga aylantirib qo'ymaydi. Bu satr – shoirning tan olish, ko'nish ohangining yorqin ifodasi.

“Sirtga qalqib chiqar barisi bir kun.”

Ushbu satr orqali shoir, baribir, bir kun yashiringanlar oshkor bo'lishi, qoralamalar barchaga ayon bo'lishi muqarrarligini ko'rsatadi.

“Bir umr qulflangan qoralamalar”

Bu misra juda kuchli ramziy ma'noga ega. Qoralamalar – shoirning ichki dunyosi, sirli fikrlari saqlanadigan makon. U shu paytgacha yashirin saqlanmoqda, ammo shoir barchasi qachondir barchaga ma'lum bo'lishini aytadi.

“Kabi hech kim senga bo'lolmas sodiq.”

Bu band ikki xil tahlil qilinishi mumkin. Birinchisi, shoirning qoralamalari kabi hech kim unga sadoqat ko'rsatolmaydi, chunki u shoirning yagona yo'ldoshi, yaqini. Shu qismda jonlantirish san'atining yaqqol namunasini ko'rish mumkin (kitobning do'st sifatida tasviri). Ikkinchisi, shoir bevosita yuqoridagi satrlar bilan uzviylikda ma'no yaratgan, ya'ni hech kim sodiq do'st bo'lolmaydi, hatto qoralamalarning ham fosh bo'ladi, deb ogohlantiradi.

“Unda – kitoblarning qoni, tomiri,”

Metafora orqali qoralama kitobning qoni va tomiri deb ataladi. Bu fikr shuni bildiradiki, har qanday mukammal asarning ildizi qoralamalarda yotadi, go'yoki har qanday buyuk voqea kichik bir harakatdan boshlangani kabi (Bazarov & Yuldosheva, 2025).

“U – ijod, jasorat, yo'lboshchi yoniq.”

Bu satr qoralamaning ijodiy jasorat va yangi yo'llarni ochuvchi kuch ekanini ko'rsatadi. Havaskor ilk bor yozgan asar ham, jahon minbarida tan olingan asarning ham muqaddimasi bir joydan – qoralamadan boshlanadi.

“Ular olib kelar senga shon-shuhrat,”

Hozir ko'rimsiz va sodda ko'rinsa-da, shu qoralamalar kelajakdagi shoir muvaffaqiyatini kuylayotgandek tasvirlanadi. Ular barcha mashhurlik va e'tirofning dastlabki qadamlari sifatida aks ettiriladi.

“Tungi qoralam – ko'z yoshday egik.”

Bu juda poetik obraz. Tunda yozilgan qoralamalar eng sirlilaridir, negaki u paytda shoir yolg'izlikda, his-tuyg'ularga to'la satrlarni bitadi. “Ko'z yoshday egik” epiteti esa ijodkor qalbidagi ruhiy iztirobni ifodalaydi.

“Qoralam... oddiy ko'rinar, hech vaqt”

Bu esa qoralamaning oddiy ko'rinishi bayoni.

“Hiyonat qilmaslar – kechirmaslar lek.”

Bu satrda qoralama jonlantiriladi va tashxisning yorqin namunasini ko'rsatadi. Shoir ta'kidlaydiki, qoralama sadoqatli, ammo hech narsani yashirmaydigan "do'st" kabidir.

"Axir bunda so'zlar, harflar emas,"

Ushbu satrda esa shoir qoralamani shunchaki oddiy bir matn sifatida ko'rilishiga norozilik bildiradi va uni faqat harf va so'zdan iborat daftar deb o'ylamang, deya fikr bildiradi.

"Ko'zga ham ilg'anamas yulduz tovushi."

Bu metaforadan foydalanilgan satr bo'lib, "yulduz tovushi" iborasi falsafiy mantiqni anglatadi. Ilhomning kelishi ham sirli va kosmik tabiat hodisasi sifatida ko'riladi.

"Unda – Haqqa yetar ko'rinmas rishta,"

Qoralama ilohiy haqiqat bilan bog'lovchi ko'rinmas ip sifatida ifodalanib, u Haq va ijodkor o'rtasidagi rishta ekanligi tasvirlanadi.

"Shoir, shu rishtani asra, albatta."

Shoir yana chorlov ohangida so'z boshlaydi, ammo bu safar masala muhim. Ijodkor ilohiy haqiqat bilan bog'langan rishtani asrab-avaylashi kerak.

"Yodlamoq mumkindir she'rlarni,"

"Ammo – lahzalar betakror sado."

Yodlash oson so'zlarni, ammo lahzalar-chi? Har bir baytda namoyon bo'lgan takrorlanmas lavhalar eng muhim qism emasmi? Shoir ijod jarayoni va ilhom lahzalari qayta takrorlanmasligidan ogoh etadi. Jarayonning o'zi asl muvaffaqiyat ekanligini aytadi.

"So'zlar qofiyadosh emassiz, asli –"

"Qondosh og'a-ini."

Shoir so'zlarga murojaat qiladi. Bu yerda shoir ta'sir darajasini orttirish maqsadida "qofiyadosh" so'zidan "qarindosh" so'ziga o'tadi. So'zlar nafaqat qofiya jihatdan bir-biriga yaqin, balki ular qarindoshdek bo'lib ketganligini ta'kidlaydi shoir va tashxis san'atini mahorat bilan qo'llaydi.

"Men parvoz tilayman sizlarga baland,"

Ushbu satrda shoir to'g'ridan-to'g'ri so'zlarga murojaat qiladi va har bir so'z, satr yuksaklikka ko'tarilishini tilaydi.

"Ko'zni yummay turib yoqib bo'lmaydi"

Shoir o'zgacha uslubda hayotda, ayniqsa ijodda jasorat muhimligini aytadi. Ijodkor jarayon davomida ichki jasoratni to'plab fidoiylilik ko'rsatish kerakligini ta'kidlaydi.

"Faqat, faqat qoralamani."



She'ring yakuniy xulosasi shundan iboratki, haqiqiy ijod hamisha qoralamadan boshlanadi va u barcha shoir ruhiy kechinmalari va holatining ochiq-oydin ko'rsatilgan eng yaqin do'sti sifatida talqin qilinadi.

Xulosa

“Qoralamalar qasidasi” she’ri Aleksandr Faynbergning ijodida muhim o’rin tutadi, negaki shoir ijod jarayonidagi tajriba va hissiyotlarini she’r orqali o’quvchiga yetkazib beradi. So’zlarni shunchaki bir qofiya belgisi emas, balki mazmunan, mohiyatan bir-biriga yaqin, bir maqsad – chuqur ma’no yaratish – yo’lida birlashgan “qarindosh” sifatida tariflaydi. Uning fikricha, ijodkorlik jarayonida qoralamaning o’rni beqiyos. U boshlanish, ilhom, do’st, oyna, yakun timsolida tavsiflanadi.

She’rda metafora, tashxis, epitet kabi badiiy vositalarning yuksak shoirlik mahorati bilan qo’llanilishi, satrlar tasirchanligini oshirgan va chuqur hayotiy ma’no yaratgan. Qoralama eng yaqin hamroh, do’st va ijodiy jasorat manbai sifatida tasvirlangan. Shu bilan birga, asarda ijod jarayonining qiyinligi, sirli ilhom manbai, Haq va ijodkor rishtalari haqida ham so’z yuritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Faynberg, A. (1999). Selected Poems. Toshkent: Sharq nashriyoti.
- 2.Bazarov, I. R., & Yuldosheva, E. A. (2025). Hopefulness in the poetry of Alexander Faynberg. International Journal of Integrated Sciences.
- 3.Mirag’ov, Q. (2018). Zamonaviy o’zbek she’riyati poetikasi. Toshkent.
- 4.Karimov, N. (2015). Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent.

